

Badiiy loyiha ustida ishlash. “Quvnoq odamcha”



Brellok – kalitlarga, qalamdon yoki ryukzakka qistirib qo'yish mumkin bo'lgan kichik bezak.



Bugun biz munchoqlar, baxmal sim va kalava ipdan **quvnoq odamcha** yasaymiz. Sevimli ranglaringizni tanlang va qahramoningiz uchun o'zgacha qiyofa o'ylab toping.



Sizga kerak bo'ladi:

- har xil o'lchamdagi turli rangli munchoqlar;
- ikkita baxmal sim;
- kalava ip;
- halqali ip;
- flomasterlar;
- qaychi.



Ishni bajarish bosqichlari

1



Katta munchoq ustiga ko'zlar va tabassum rasmini chizing.

2



Soch yasang. Kalava ipni bir qo'lingizning to'rtta barmog'iga bir necha bor o'rang. O'ramni ehtiyotkorlik bilan chiqarib oling va o'rtasidan bog'lang.

3



Sochni ushlab turuvchi ipni katta munchoq orasidan o'tkazing. Bitta baxmal simni ikkiga buklang va ip atrofiga bog'lab mahkamlang. So'ngra kichkina munchoqni – bo'yinni kimgazing.

4



Ikkinchi baxmal simni birinchisiga o'rab, mahkamlang. Birinchi simning uchlarini ajratmagan holda ularga uchta munchoq kimgazing, shunda tana hosil bo'ladi.

5



Birinchi simning uchlarini ajrating va ularga munchoqlarni kimgazing, shunda oyoqlar hosil bo'ladi.

6



Keyin munchoqlarni qo'llarga tizib chiqing. Munchoqlar tushib ketmasligi uchun sim uchlarini qayiring.

7



Soch turmagini tayyorlang. Kalava ip ilmoqlarini qirqib, sochlarni tekislang.

8



Ishni yakunlang. Mahkamlangan joylarni tekshiring va o'yinchoqning qo'l hamda oyoqlarini to'g'rilab qo'ying.

